



OMBOR-TRANSPORT JARAYONLARINI LOYIHALASH

Muhammadjanov Bekzod Baxtiyor o`g`li

Andijon Mashinasozlik Instituti

Transport logistikasi yo`nalishi K-102-21-guruh talabasi

Azimov Azizbek Abdusamad o`g`li

Andijon Mashinasozlik Instituti

Transport logistikasi yo`nalishi K-102-21-guruh talabasi

Toshmatov Diyorbek Baxtiyorjon o`g`li

Andijon Mashinasozlik Instituti

Transport logistikasi yo`nalishi K-102-21-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ombor-transport jarayonlarini loyihalash, moddiy oqimlarni tashkil qilish, Avtomatlashtirilgan transport omborxona moddiy oqimlarini tashkil qilish, Ombor operatsiyalarini avtomatlashtirish va ularni rivojlantirish to`g`risida ma`lumotlar berilgan.

Kalit so`zlar: Omborxona, moddiy oqim, avtomatlashtirish, ortish-tushirish, taqsimot, logistik funksiya.

Transport omborxona moddiy oqimlarini tashkil qilish majmualari kompleks-mexanizatsiyalashtirilgan va avtomatlashtirilgan turlarga bo`linadi. Kompleks mexanizatsiyalashtirilgan majmua tarkibiga qabul qilish - foydalanish tizimchasi, mexanizatsiyalashtirilgan tartibda yukni qayta ishlash uchun mashina va uskunalar majmui bilan javon moduli, yukni uzatish uchun omborxona terminali kiradi[1-3].

Avtomatlashtirilgan transport omborxona moddiy oqimlarini tashkil qilish majmuasiga quyidagilar kiradi:

- Ko`tarish - transport vositalari majmuasi va avtomatlashtirilgan boshqaruvning joylashtirilgan tizimi bilan avtomatlashtirilgan javon moduli;
- avtomatlashtirilgan tarzda faoliyat ko`rsatuvchi ko`tarish transport uskunolari majmuasi bilan avtomatlashtirilgan javon moduli.



Avtomatik omborxona agregat - transport majmualariga quyidagilar kiradi:

- Ortish - tushirish va transport vositalar bilan avtomatik boshqariluvchi omborxona majmualari;

- avtomatik boshqariluvchi omborxona majmualari, ombor - avtomatlar.

Eng ko'p foydalanuvchi omborxona uskunalariga kiruvchi asosiy javonlar:

- bir joyda turuvchi;

- aylanuvchi;

- elevatorli;

- konteynerli;

- harakatlanuvchi;

- gravitatsion[4].

Omborxona uskunalariga kiruvchi, sochiluvchi, suyuq va boshqa yuklarni saqlash vositalari quyidagilarga bo'linadi:

- yassi va qutichalardan iborat bo'lgan bunkerlar;

- yer usti idishlari;

- yer osti idishlari.

Omborlarning o'lchovi va dozalarga ajratuvchi uskunalar logistik tizimda texnik ta'minotning alohida guruhini tashkil qiladi. Hozirgi vaqtda tarozilar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- platformalar uchun;

- avtomobillar uchun;

- vagonlar uchun;

- yuk kranlari uchun;

- konveyerlar uchun.

Barcha ko'tarish - transport vositalari vazifalarini bajarishiga muvofiq besh guruhga bo'linishi mumkin:

- yuk kranlari;

- ko'targichlar;

- transport vositalari;

- yukni ushlab turuvchi moslamalar;



- transmanipulyatorlar[5-7].

Yuk kranlariga ko'priqli, echkisimon, o'zi yurar, port, minorali va konusli kranlar kiradi.

Ko'priqli kranlar bir balkali tirab turiladigan, bir balkali osma, ikki balkali umumiy, ikki balkali maxsus bo'lishi mumkin; echkisimon kranlar esa kanalli va kanalsiz bo'lishi mumkin. Ko'priqli va echkisimon kranlar yengil, o'rtacha, og'ir rejimli, bir ilgakli va ikki ilgaklilarga bo'linadi.

O'ziyurar kranlar avtomobilar yemir yo'l va siqilgan havo bilan yuradiganlarga bo'linadi[8-10].

Konusli kranlar aylanuvchi va harakat qiluvchi bo'lishi mumkin. Transmanipulyatorlar pol ustidagi, tayanchli va osma transport va osma mexanizmlarga bo'linadi. Bundan tashqari pol ustidagi transmanipulyatorlar guruhiga quyidagilar kiradi:

- portlashdan himoyalangan elektr ortgichlar;
- oddiy qilib bajarilgan elektr ortgichlar;
- elektr shtabellar.

Transport vositalari o'z ichiga transport - taqsimot vosita pol ustidagi vositalarni oladi. Transport - taqsimot vositalariga konteynerlar va taqsimot vositalari kiradi. Konstruktiv belgilarga muvofiq konveyerlar quyidagilarga ajraladilar: burama, lentasimon, gordinsimon, echkisimon, osma, mahkamlangan, g'ildirakchali, plastic[11-13].

Yukni ushlab turuvchi moslamalar ko'tarish - transport vositalarining alohida turi sifatida ularning vazifasi va turiga muvofiq quyidagilarni o'z ichiga oladi: donali yuklarni ko'tarish uchun; sochiladigan yuklar uchun; uzun metall prokati uchun; konteynerlar uchun; qurilish va yog'och yuklari uchun; ko'p navli mahsulotlar uchun. Mavjud turkumlashga muvofiq logistik tizim texnik ta'minlanilishi vositalarning ko'p sonli guruhlari yordamchi, ko'pincha omborxona va ko'tarish -transport uskunalari yuqori darajada faoliyat ko'rsatadigan uskunalaridan tashkil topadi.

Omborlar bir-biridan farq qilishiga qaramay, deyarli bir xil logistik funksiyalarni bajaradi:

- moddiy zaxiralarni joylashtirish va saqlash;



- moddiy oqimlarni qayta ishlash;
- logistik servis va xizmat ko'rsatishni ta'minlash.

Har qanday ombor, kamida, uch xil moddiy oqimlarga ishlov beradi: kiruvchi, chiquvchi va ichki[14-16].

Kirayotgan moddiy oqimlar transportdan tushiriladi, miqdori va sifati tekshiriladi. Chiquvchi oqim esa, albatta yuklanadi. Ichki oqimlar korxona ichida bir joydan boshqasiga ko'chiriladi.

Moddiy oqimlarni o'zgartirish- ularga ishlov berish orqali yangi ko'rinishga keltirishdir, masalan, qoplash yoki qadoqlash va hokazo.

Endi har xil omborlar bajarishi mumkin bo'lgan vazifalarni ko'rib chiqaylik.

Korxonaning tayyor mahsulot omborida ular to'planishi va taxlanishi, saqlanishi, navlarga ajratilishi yoki qo'shimcha ishlov berilishi, markirovka qilinishi, ortishga tayyorlanishi va ortilishi mumkin.

Iste'molchi korxonalarning xomashyo omborlari yuklarni qabul qiladi, navlarga ajratadi, saqlaydi va ishlab chiqarish uchastkalariga yuborishga tayyorlaydi.

Ulgurji vositachi firmalarning omborlari yuqorida sanab o'tilgan vazifalardan tashqari quyidagi vazifalarni ham bajaradi;

- tovarlarning bir joyda to'planishini ta'minlash;
- mahsulotlarni komplektlash va tanlash;
- kichik partiyalarda tovarlarni iste'molchi korxonalarga yetkazish va xokazo[17].

Omborlarning logistik funksiyalari logistik operatsiyalarni bajarish davrida namoyon bo'ladi. Omborlar juda ko'p turlarga ajratilganligi sababli, logistik funksiyalari farqlanishiga qaramay, ba'zi o'xshashliklari ham mavjud. Har qanday omborlar quyidagi tartibda ishlaydi:

- transportdan tushirish;
- tovarni qabul qilib olish;
- joylashtirish va saqlash (taxlash);
- saqlash joyidan tovarni tanlab olish;



- tovarlarni butlash va qadoqlash; - yuklash va boshqalar[18].

ADABIYOTLAR

1. Gaffarov Makhammatzokir Toshtemirovich , Nasirov Ilham Zakirovich , Sobirova Tursunoy Abdipatto kizi , Hakimov Mavlonbek Solijon ugli. (2023). Recovery Of Fines From Drivers Of Foreign Vehicles. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 3589–3591. <https://doi.org/10.47750/pnr.2023.14.03.446>.
2. Nasirov Ilkham Zakirovich- Ph.D., Gaffarov Mukhammadzokir Toshtemirovich , Doctoral Student. (2023). Consequences Of Complete And Undercombustion Of Fuel. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 3597–3603. <https://doi.org/10.47750/pnr.2023.14.03.448>.
3. Malokhatkhon Karimovna KOSIMOVA, Davlatkhon Karimovna MUQIMOVA, Ilham Zakirovich NASIROV, Bahodirjon Zakirovich NOSIROV. **WELDING MATERIALS USED IN THE RECOVERY OF CORRODED DETAILS IN THE CONTACT WELDING METHOD**// *Eur. Chem. Bull.* 2023, 12(5), 1657-1662. DOI: <https://doi.org/10.47750/pnr.2023.14.03.446>. <https://eurchembull.com/uploads/paper/5aa8cc7f80ab74316113aca9aab7cb42.pdf>.
4. NASIROV ILXAM ZAKIROVICH, NURDINOV MURODALI ALIJONOVICH, GAFFAROV MUKHAMMADZOKIR TOSHTEMIROVICH, XAYDAROV MURODJON AKBARALIYEVICH, TO'RABOYEV HOLMUROD RUSTAMJON O'G'LI. CONDUCTING LESSONS IN INVENTIVE METHODS// *The Seybold Report- Seybold Publication*, Box 644, 428 E. Baltimor Ave. Media, PA 19063. 227-234 p. <https://www.seyboldreport.org/issues>
[Nasirov Ilham Zakirovich, Nurdinov Murodali Alijonovich, Nasirov Bahodirjon, Kuzibolaeva Dilnoza Tukhtasinovna, Obidzhonova Gulizebo Shukhratbek kizi.](https://www.seyboldreport.org/issues)
EFFECT OF SYNTHESIS GAS SUPPLY ON ENGINE PERFORMANCE// *MSW MANAGEMENT -Multidisciplinary, Scientific Work and Management Journal*. ISSN: 1053-7899, Vol. 33 Issue 2, December – 2023, Pages: 125-132. <https://mswmanagementj.com/index.php/home/article/view/50>